

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.U.Xamidjanov</b> Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatli o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
<b>A.A.Parmonov</b> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili .....	90
<b>M.A.Tursunboyeva</b> Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi .....	97
<b>M.I.Boymanova</b> Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish .....	102
<b>A.Matkarimov</b> O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida) .....	105
<b>N.M.Xodjibolayeva</b> Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari .....	110
<b>M.Sh.Dehqonova</b> Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi .....	114
<b>N.Sayimbetova</b> Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	117
<b>A.Abdullayev</b> Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi .....	121
<b>J.Sh.Mamayusupov</b> Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati.....	125
<b>S.Abdullayev</b> Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni.....	129
<b>D.O.Djalilova</b> Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati.....	138
<b>M.M.Азизов</b> Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба? .....	141
<b>L.Z.Xolmurodov</b> 9-10 yoshdagi bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari.....	147
<b>I.M.Saidov</b> Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi .....	151
<b>O.A.Xo'jaqulov</b> Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari .....	155

---

FALSAFA

<b>A.A.Qambarov</b> Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili .....	161
<b>B.B.Namozov</b> Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida .....	166
<b>M.T.Voxidova</b> Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari.....	172
<b>I.M.Arzimatova</b> Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari .....	176

## IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNING ILMIIY TAVSIFI

## НАУЧНОЕ ОПИСАНИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

## SCIENTIFIC DESCRIPTION OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE

Saidov Ixtiyor Mizrabovich<sup>1</sup><sup>1</sup>Urganch davlat pedagogika insituti, dotsent, falsafa fanlari doktori (PhD)**Annotatsiya**

Ushbu maqola ma'lum bir mamlakatda ta'lim va kadrlar tayyorlashning rivojlanayotgan manzarasini o'rganib, ta'lim tizimining sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Unda milliy ta'lim tizimini zamon talablariga javob beradigan tarzda modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan tizimli ishlar chuqurroq o'rganilib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, o'quvchilar va harbiy tayyorgarlikka qadar bo'lgan o'quvchilarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni singdirish muhimligi ta'kidlangan. Maqolada, shuningdek, ta'limning uzluksizligi va uzviylikini ta'minlovchi ta'lim tizimlari va fan-texnika sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiya zarurligi ta'kidlangan. Maqolaning muhim qismi lotincha "competentia" so'zidan olingan bo'lib, muvofiqlik yoki malakani bildiruvchi "kompetentlik" tushunchasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda o'rganishni ijodiy va mustaqil ravishda amaliyotda qo'llash uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarning har tomonlama uyg'unligi muhokama qilinadi. Maqolada shaxsning turli xil hissiy, intellektual, irodaviy, ijodiy va hissiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan, birgalikda turli faoliyatda belgilangan maqsadlarga erishishga hissa qo'shadigan kompetentsiyaning murakkab ta'lim tuzilishini muhokama qilish bilan yakunlanadi.

**Аннотация**

В этой статье исследуется развивающаяся ситуация в сфере образования и обучения в конкретной стране, уделяя особое внимание повышению качества и эффективности системы образования. В нем подробно рассматриваются систематические усилия, предпринимаемые для модернизации национальной системы образования в соответствии с современными требованиями, подчеркивая важность привития современных знаний и навыков дошкольникам, студентам и слушателям довоенной подготовки. В статье также подчеркивается необходимость тесного сотрудничества и интеграции систем образования и сферы науки и техники, обеспечения непрерывности и согласованности образования. Значительная часть статьи посвящена анализу понятия «компетентность», происходящего от латинского слова, обозначающего пригодность или квалификация. В нем обсуждается комплексное сочетание теоретических и практических знаний, навыков и компетенций, необходимых для творческого и независимого применения обучения на практике. В заключение статьи рассматривается сложная образовательная структура компетентности, интегрирующая различные сенсорные, интеллектуальные, волевые, творческие и эмоциональные качества человека, которые в совокупности способствуют достижению целей, поставленных в различных видах деятельности.

**Abstract**

This article explores the evolving landscape of education and training in a specific country, focusing on enhancing the quality and effectiveness of the education system. It delves into the systematic efforts being made to modernize the national education system to meet contemporary demands, emphasizing the importance of instilling modern knowledge and skills in preschoolers, students, and pre-military training students. The article also highlights the need for close collaboration and integration between education systems and the field of science and technology, ensuring the continuity and coherence of education. A significant part of the article is dedicated to analyzing the concept of "competence," derived from the Latin word "competentia," indicating suitability or qualification. It discusses the comprehensive mix of theoretical and practical knowledge, skills, and competencies required to apply learning creatively and independently in practice. The article concludes by discussing the complex educational structure of competence, integrating various sensory, intellectual, volitional, creative, and emotional qualities of a person, which together contribute to achieving the goals set forth in various activities.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, Modernizatsiya, Kompetensiya, Harbiygacha tayyorgarlik, Hamkorlik, Integratsiya, Uzluksiz ta'lim, Sifatni oshirish, Nazariy va amaliy bilimlar.

**Ключевые слова:** система образования, модернизация, компетентность, довоенная подготовка, сотрудничество, интеграция, непрерывное образование, повышение качества, теоретические и практические знания.

**Key words:** education system, modernization, competence, pre-military training, collaboration, integration, continuous education, quality enhancement, theoretical and practical knowledge.

**KIRISH**

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin

hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda[1].

#### ADABIYOTLAR TAHLILI


Mutaxassislarni kasbiy jihatdan tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarda amalda bo'lgan ta'lim mazmunini bevosita o'rganishi shuni ko'rsatdiki, G'arb mamlakatlarida asosiy o'rinni mutaxassising kompetentlik malaka darajasi egallaydi. Respublikamizning milliy ta'lim tizimi mohiyatiga kura ta'lim mazmunining minimal talablari bilim, ko'nikma va malakaga asoslanadi.

Avvalo kompetensiya tushunchasini izohlab o'tsak. "Kompetensiya" lotincha so'zdan olingan bo'lib, "o'z kasbiga yaroqli, loyiq" degan ma'noni bildiradi. Kompetensiya – bu nafaqat olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasi, balki olingan nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasidir.

Lug'atlarda "kompetentli" tushunchasi bir necha ma'nolarda keladi. Jumladan, muayyan kompetensiyaga ega bo'lgan, ya'ni biror bir tashkilot, shaxs faoliyatida vujudga keladigan muammo, vaziyatlarga: competentia (lot.) qonun bo'yicha taalluqli funksiyalarni amalga oshira oluvchi; ma'lum savollar to'plamiga javob bera oladigan, malakali mansabdor shaxsni anglatadi. E.A.Seytxalilov, B.X.Raximov, I.U.Madjidovlar tomonidan chop etilgan "Pedagogicheskiy slovar-spravochnik" lug'atida "kompetentli" termini "biror bir sohaga taaluqli bilimga egalik, xabardorlik", "kompetensiya" so'zini esa "ma'lum savollarga javoblarni yaxshi biladigan kishi" yoki "biror ishni qilish huquqiga ega odamlar doirasi", sifatida talqin qilinadi[2,315].

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Kompetensiya – ma'lum bir faoliyatni muvafaqqiyatli omilkorlik, mohirlik bilan eplay olishlik, qila olishlik qobiliyatlari bo'lib, u egallangan nazariy va amaliy bilimlar, malakalar va ko'nikmalar asosida namoyon bo'ladi. Kompetensiya shaxsning murakab ta'limiy strukturasi bo'lib, u o'zida shaxsning sensor, subsensor va ekstrasensor, sensomotor, ideo dinamik(ideomotor, ideosensor, ideomotiv, ideokognitiv) intellektual, irodaviy, kreativ, emotsional sifatlarini o'zida jamlaganki, ular faoliyatdan ko'zlangan maqsadga uning o'zgarib boruvchi sharoitida amalga oshuvini ta'minlaydi. Shunday qilib kompetensiya shaxsning yuksak sifatiy xislati bo'lib, uning shakllanishi ta'limning hal qiluvchi oqibat, natijasi hisoblanadi. Yuqoridagilarga asoslanib, kompetensiyani quyidagicha sxematik ifoda etish mumkin bo'ladi:



Agarda «kompetent» va «kompetentlik» tushunchalarining etimologik taxliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi[3].

Kompetentlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o’z o’rnida va tezkorlik bilan to’g’ri qo’llay bilish;
- qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish; – ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish;
- faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o’zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko’zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o’rnata olish imkonini beradigan kommunikativ ko’nikmalar;
- muayyan ma’naviy qadriyatlar, dunyoqarash, umummadaniy va axloqiy sifatlarga egalik, faoliyatga intilish hissining mavjudligi;
- o’zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilish[4,3-8].

Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yunalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga quyiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo’nalishi talabalarining muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to’plamini maqsadga muvofiq qo’llash qobiliyatini anglatadi.

Kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo’llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o’rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to’la ochiladi, y quyidagi ikki ko’rinishda namoyon bo’ladi: kompetentlik chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo’nalishi talabalarining shaxsiy sifatlari to’plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida[5,128].

Ta’lim mazmunining o’quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to’plami uchun) va predmetli (ma’lum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e’tirof etib o’tamiz:

- tayanch kompetentlik (ta’limning gumanitar, ijtimoiy- iqtisodiy mazmuniga kura);
- fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o’quv fanlari va ta’lim bloklarining ma’lum doirligiga kura);
- bitta predmet(fan) bo’yicha kompetentligi (maxsus o’quv fani doirasida aniq va ma’lum imkoniyatga egaligiga ko’ra).

Shunday qilib, tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta’limning har bir bosqichi uchun ta’lim bloklari va o’quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta’limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko’nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan ular quyidagi kompetentlik turlariga bulinadi:

Yaxlit-mazmunli kompetentlik. Bu talabaning qadriyatli yo’nalishlari bilan bog’liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo’lini topa olishi, o’zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o’rnini anglab yetishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maksadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog’liq kompetentlik, u talaba uchun o’quv va boshqa vaziyatlarda o’zini aniqlash mexanizmini ta’minlaydi. Talabaning individual ta’lim yo’nalishi va uning hayotiy faoliyatining umumiy dasturi ana shu kompetentlikka bog’liq.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik. Talaba chuqur o’zlashtirishi zarur bo’lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo’lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma’naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an’analarning madaniy asoslari, inson

hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta'siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo'sh vaqtni samarali tashkil etish usullarini bilishi.

**O'quv-bilish kompetentligi**, bu talabanning o'rganilayotgan aniq obyektlar bilan bog'liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo'lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to'plami bo'lib, unga maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar kiradi. O'rganilayotgan obyektlarga nisbatan chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini kreativ ko'nikmalari, ya'ni bilimlarni bevosita borlikdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

**Axborot olish kompetentligi**. Audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, taxdil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabanning o'quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o'zlashtirishini ta'minlaydi.

**Kommunikativ kompetentlik**. Ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi tilni o'zlashtirish, guruhlarda ishlash kunikmalari, jamoada turli xil manaviy-marifiy tadbirlarni tashkil qilish va utkazishni bilishni o'z ichiga oladi.

### XULOSA

Ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik fuqarolik (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy- mehnat sohasi (iste'molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqei aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallash(xususan, mehnat bozorida mavjud vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab, harakat qilish mahorati, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarining odobini bilish)ni anglatadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni;
2. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr sanasidagi Oliy majlisga va xalqimizga qilgan murojaatlari;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898-sonli Qarori;
4. 2018-yil 23-fevralda 140-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori;
5. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontsepsiyasini samarali amalga oshirishiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi buyrug'i.
6. Falsafa qisqacha izohli lug'at (Mas'ul muharrir: A.Jalilov).
7. Xolbekov A.J., Matiboyev T.B. Ijtimoiy adolat va demokratiya: Barqaror taraqqiyot yo'lida. – T.: "Yangi asr avlodi", 2004.– B. 102.
8. Iminov B.K. Manfaatlar – siyosat mafkurasi. – T.: Minhoj, 2002.
9. Человек и культура межнационального общения (под ред С.Шермухамедова).-Тошкент.: Узбекистан, 1995.
10. Choriyev T. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat tashkilotlarining roli va o'rni//
11. <https://adolat.uz/frakciya/yoshlarni-vatanparvarlik-ruhida-tarbiyalashda-zhamoat-tashkilotlarining-orni-va-rol>